



**“ASIA ALLIANCE BANK” ATB TIZIMIDA SANKSIYALAR BILAN ISHLASH  
TARTIBI**

**Toshkent 2022**

## M U N D A R I J A

<b>I</b>	<b>TARTIBNING MAQSADI</b>	<b>1</b>
<b>II</b>	<b>TARTIBGA OID QONUNCHILIK HUJJATLARI</b>	<b>1</b>
<b>III</b>	<b>ASOSIY TUSHUNCHALAR</b>	<b>1-5</b>
<b>IV</b>	<b>SANKSIYALAR BO‘YICHA TALABLARGA RIOYA ETISHNING MUHIMLIGI</b>	<b>5</b>
<b>V</b>	<b>SANKSIYALARING TOIFALARI</b>	<b>5-6</b>
<b>VI</b>	<b>SANKSIYA RO‘YXATLARNI SHAKLLANTIRISH, YANGILAB BORISH TARTIBI</b>	<b>6</b>
<b>VII</b>	<b>SANKSIYA RO‘YXATIDAGI SHAXSLARNI SOLISHTIRISH VA OPERATSIYALARINI TO‘XTATIB QO‘YISH TARTIBI</b>	<b>7-11</b>
<b>VIII</b>	<b>KORRESPONDENT BANKLARINING SO‘ROVNOMALARI BILAN ISHLASH</b>	<b>11</b>
<b>IX</b>	<b>SANKSION XATARLAR VA ULARNI BOSHQARISH</b>	<b>11-12</b>
<b>X</b>	<b>SANKSIYALAR BO‘YICHA XODIMLAR MALAKASINI OSHIRIB BORISH</b>	<b>12</b>
<b>XI</b>	<b>YAKUNIY QOIDALAR</b>	<b>12</b>

## I. TARTIBNING MAQSADI

Ushbu Tartib “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (keyingi o‘rinlarda Bank) tizimida sanksiyadagi jismoniy va yuridik shaxslarning ro‘yxatini (keyingi o‘rinlarda Sanksiyalar ro‘yxati) shakllantirish, keyinchalik ularni yangilab borish, Sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan jismoniy va yuridik shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatishni, to‘xtatilgan operatsiyalarni qayta tiklashga ruxsat berishni o‘z ichiga olgan hamda sanksiyadagi shaxslar va ularning operatsiyalari yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish tartibini belgilaydi.

## II. TARTIBGA OID QONUNCHILIK HUJJATLARI<sup>1</sup>

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 iyundagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi 402-sonli qarori, Adliya vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-sod bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalari” hamda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarini ishlab chiqish Guruhi (FATF)ning, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Xavfsizlik Kengashining, Volfsberg Guruhining, OFAC (AQSH), EU (Yevropa Ittifoqi) tavsiya va talablari asosida ishlab chiqilgan.

## III. ASOSIY TUSHUNCHALAR

**Bank** – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB, shu jumladan uning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, filiallari va bank xizmatlari markazlari;

**Mijoz** – pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyani (bundan buyon matnda Operatsiya deb yuritiladi) amalga oshirish to‘g‘risida tijorat bankiga topshiriqnomasi (ariza, iltimosnomasi) bilan murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**Benefitsiar** – qonun hujjatlari bilan belgilangan ta’sis hujjatlari (ustav, ta’sis shartnomasi, nizom) asosida va ochiq manbalar va ma’lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan qo‘sishchasi tasdiqlangan ma’lumotlar asosida mulk va boshqaruv tuzilmasini o‘rganish orqali yuridik shaxs bo‘lgan mijozning mulkdori, shu jumladan uni nazorat qiluvchi jismoniy shaxs;

**Sanksiyalar** – xalqaro tashkilotlar yoki ma’lum bir davlat tomonidan tasdiqlangan ayrim davlatlar, aniq subyektlar, jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan (terrorchilar, harbiy va siyosiy jinoyatlarda ayblangan shaxslar, ekstremistik tashkilotlar va boshqalar) yoki muayyan faoliyatga nisbatan o‘rnatilgan xalqaro (ommaviy) cheklov choralar;

---

<sup>1</sup> Sanksiyalar va eksport nazoratiga oid qonunchilik xujjatlari xalqaro vaziyatga ko‘ra yangilanib borishi mumkin.

**Moliyaviy cheklovlar** – shaxsga (jismoniy yoki yuridik shaxs yohud boshqa aniqlanishi lozim bo‘lgan sanksiya ostidagi shaxs) tegishli yoki uning nazoratidagi aktivlar, moliyaviy vositalar va mablag‘larga nisbatan cheklovlar;

**Ichki nazorat dasturi** – Bank avtomatlashtirilgan tizimidagi ma’lumotlar asosida Komplayens-nazorat boshqarmasi uchun ishlab chiqilgan, ichki nazorat sohasida avtomatlashtirish jarayonlari jamlangan maxsus dasturiy modul;

**SWIFT Transaction Screening Utility** – SWIFT dasturiy tizimi orqali amalga oshirilayotgan jo‘natuvchi va oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar to‘lovlarining tanlangan sanksiyalar ro‘yxatidagi shaxslar bilan mosligini tekshirni avtomatlashtirilgan moduli;

**Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari** – Sanksiya nazorati amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lgan Bankning Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari (Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari va xodimlari);

**So‘rovlар va sanksiyalar ro‘yxatlari bilan ishlash sho‘basi** Sanksiyalar ro‘yxati nazoratini amalga oshirish bo‘yicha Komplayens-nazorat boshqarmasining mas’ul tarkibiy bo‘linmasi;

**Sanksiya nazorati** – Komplayens-nazorat boshqarmasi dasturiy vositalari, jumladan Ichki nazorat hamda SWIFT Transaction Screening Utility dasturlari yordamida aniqlanadigan, Sanksiyalar ro‘yxati bilan mijozlar va (yoki) Operatsiyalarni solishtirish hamda to‘xtatish jarayoni;

**Eksport nazorati** - tovarlar, texnologiyalar, texnik ma’lumotlar, dasturiy ta’minot yoki xizmatlarni import, eksport, reeksport qilish, o’tkazish, chiqarish, jo‘natish, uzatish yoki taqdim etish va olish bilan bog‘liq qonunlar yoki qoidalar, shuningdek, har qanday qonun yoki hukumat organlari tomonidan qo‘llaniladigan va amalga oshiriladigan o‘xshash xarakterdagi xuquqiy hujjatlar.

**Operatsiya ishtirokchilari** – mijozlar, ularning vakillari, mijozning operatsiyada ishtirok etuvchi hamkorlari (xalqaro operatsiyalar bo‘yicha korrespondent va vositachi moliya institutlarini inobatga olgan holda), shuningdek mijozga aloqador shaxslar (nazorat qiluvchi yoki nazorati ostidagi shaxslar);

**Sanksiyalar ro‘yxati** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, OFAC (AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi), EC (Yevropa Ittifoqi, Yevropa komissiyasi), UK (Birlashgan qirollik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qirolligi) va boshqa chet davlatlarning<sup>2</sup> vakolatli organlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilinadigan yoki ishonchli, rasmiy manbalar orqali taqdim etiladigan ro‘yxat, shuningdek sohaviy yoki eksport nazorati bo‘yicha qo‘srimcha sanksiyalar ro‘yxatlari;

**Sanksion xatarlar** - operatsiya ishtirokchisi, uning asoschisiga, benefitsiar yoki nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan sanksiyaviy cheklovlar qo‘llanilish ehtimoli;

**BMT Xavfsizlik Kengashining sanksiyaviy ro‘yxatlari** - BMT Xavfsizlik Kengashi va uning qo‘mitalari tomonidan tuziladigan, shu jumladan BMT Xavfsizlik Kengashining ISHID (DAISH) va “Al-Qaida” bo‘yicha 1267, 1989 va 2253 rezolyutsiyalari asosida tashkil etilgan qo‘mitaning hamda “Tolibon” tashkiloti bo‘yicha 1988 va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bo‘yicha 1718 rezolyutsiyalari asosida tashkil etilgan qo‘mitalarning terrorchilik faoliyatiga yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishga aloqador

<sup>2</sup> G7 tarkibiga kiruvchi davlatlar, ya’ni Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada.

bo‘lgan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo‘llanilishi belgilangan jismoniy va yuridik shaxslar ro‘yxatlari;

**FATF** - Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha moliyaviy choralarni ishlab chiqish Guruhi (Financial Action Task Force on Money Laundering – FATF);

**OFAC** – AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi (Office of Foreign Assets Control);

**Operatsiyalarni to‘xtatib turish** - mijozning pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni ko‘chirish, konversiyalash, o‘zga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi topshiriqnomalari ijrosini to‘xtatib turish.

#### **IV. SANKSIYALAR BO‘YICHA TALABLARGA RIOYA ETISHNING MUHIMLIGI**

**4.1.** Amaldagi sanksiyalar va eksport nazorati qonunchiligi talablariga riosa etmaslik moliyaviy institutlarga nisbatan saksiyaviy xatarlar darajasini hamda regulyatorlik organlari tomonidan cheklovlar va jarimlar qo‘llanilishi ehtimolini oshiradi.

**4.2.** Ma’lumki, xalqaro korrespondent banklar o‘z mamlakatlari sanksion qonunchiligi doirasida kuchli ichki siyosat yuritadilar. Bank vakillik xisob raqamini yuritish jarayonida moliyaviy operatsiyalar ishtirokchilari, tovar va xizmatlar turlari, biznes faoliyat va hududlar sanksiyaviy ro‘yxatga mos kelsa korrespondent banklar mablag‘lar harakatini to‘xtatib turishi yoki boshqa cheklovlarni qo‘llashi mumkin. Bunday holat Bank nufuziga putur yetishiga hamda operatsion va moliyaviy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelishi mumkin.

**4.3.** Mazkur Tartibda keltirib o‘tilgan xalqaro, mahalliy qonunchilik va Bank ichki siyosatini buzgan mas’ul xodimlarga nisbatan intizomiy choralarni qo‘llanilishiga olib keladi.

#### **V. SANKSIYALARING TOIFALARI**

Sanksiyalar kelib chiqishi, mohiyati, va qo‘llanilishiga qarab bir necha asosiy toifalarga bo‘linadi:

**Birlamchi sanksiyalar** – sanksiyalarni qo‘llagan mamlakatdagi barcha jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan riosa etilishi kerak bo‘lgan iqtisodiy cheklovlar;

**Bloklovchi sanksiyalar** – ushbu sanksiyalar qo‘llanilgan shaxslarning aktivlari muzlatiladi, AQSH moliyaviy tizimiga kirishni ta’qiqlaydi, moliyaviy operatsiyalari to‘xtatilib, SDN-ro‘yxatga (Specially Designated Nationals) kiritiladi;

**Sektoral sanksiyalar** – bu sanksiyaga tushgan mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlari uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan SSI-ro‘yxatga (Sectoral Sanctions Identifications) kiritilgan kompaniyalar bilan maqsadli cheklovlardir;

**Ikkilamchi sanksiyalar** - bu sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lgan shaxslar yoki hududlar bilan aloqada bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralari.

Bank ushbu Tartibda keltirib o‘tilgan xalqaro tashkilotlar va G7 mamlakatlari tomonidan qo‘llanilgan barcha toifadagi sanksiyalar bo‘yicha ko‘rsatmalarni muntazam ravishda o‘rganib boradi va o‘z operatsion faoliyatida foydalanadi.

## **VI. SANKSIYA RO‘YXATLARNI SHAKLLANTIRISH, YANGILAB BORISH TARTIBI**

**6.1.** Sanksiyalar ro‘yxati “World-Check-Data” dasturidan (chet davlatlarning vakolatli organlaridan hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlari yoki rasmiy kanallar orqali olingan ma’lumotlar asosida, XML fayllari shaklida) Bankning Bosh ofisi Komplayens-nazorati boshqarmasi tomonidan yuklab olinadi hamda ish kunining boshiga kunlik tarzda Ichki nazorat dasturiga Axborot texnologiyalari boshqarmasi xodimlari orqali yuklab boriladi hamda SWIFT Transaction Screening Utility dasturida mas’ul xodim tomonidan tanlama asosida Sanksiyalar ro‘yxati shakllantiriladi. Shakllantirilgan Sanksiyalar ro‘yxati kunlik tarzda dastur bazasiga avtomatik tarzda yangilab boriladi.

**6.2.** Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i va So‘rovlar va sanksiyalar ro‘yxatlari bilan ishslash sho‘basi xodimi sanksiyalar ro‘yxatini tegishli tashkilotlarning rasmiy veb-saytida yangilanganligini va boshqa maxsus kanallar orqali ma’lumotlar kelishi yoki yangilanishini kuzatib boradi (Sanksiyalar ro‘yxatga mas’ul bo‘lgan xodimlar).

**6.3.** Sanksiyalar ro‘yxati Ichki nazorat dasturining tegishli bo‘limiga (har ish kuni boshiga) avtomat tarzda yuklanadi hamda SWIFT Transaction Screening Utility dasturida onlayn tarzda yangilanib borishi ushbu jarayon Bankning Sanksiyalar ro‘yxati bo‘yicha mas’ul xodimi tomonidan nazorat qilib boriladi.

**6.4.** Sanksiyalar ro‘yxatini dasturlarga yuklash majburiyati ro‘yxatga ma’sul bo‘lgan xodimlarga biriktiriladi, ularning hech qaysisi ma’lum sabablarga ko‘ra ish joyida bo‘lmagan hollarda Sanksiyalar ro‘yxatini Ichki nazorat dasturiga yuklash Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbariga o‘tadi, shuningdek Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbari bevosita ushbu jarayon nazoratini olib boradi

**6.5.** Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan xalqaro yoki maxsus sanksiyalar (sektoral sanksiyalar, embargo yoki eksport/import nazorati) qo‘llanilgan mamlakatlar ro‘yxatlari rasmiy manbalardan olingan vaqtidan e’tiboran bir ish kunida tarkibiy bo‘linmalarga yetkaziladi.

**6.6.** Qo‘llanilgan sanksiyalar turlari Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan (bunday mamlakatlar bilan munosabatlar butunlay yoki qisman taqiqlanishidan kelib chiqib) ko‘rsatma sifatida Bankning tarkibiy bo‘linmalariga yetkaziladi.

**6.7.** Mamlakat yoki maxsus sanksiyalar bo‘yicha tashqi iqtisodiy faoliyat operatsiyalari yuzasidan nostandart (mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan) vaziyatlar vujudga kelgan hollarda, Bankning tegishli tarkibiy bo‘linmalari bunday operatsiyalarni Komplayens-nazorat boshqarmasi bilan maslahatlashgan holda amalga oshiradilar.

## **VII. SANKSIYA RO‘YXATIDAGI SHAXSLARNI SOLISHTIRISH VA OPERATSIYALARINI TO‘XTATIB QO‘YISH TARTIBI**

**7.1.** Mijoz yoki hamkorlar bilan munosabat o‘rnatish, ularning operatsiyalarini amalga oshirish yoki hujjatlarini ijroga qabul qilishdan oldin Bankning Bosh ofisi, uning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, filiallari va bank xizmatlari markazlari tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatish(hisob raqam ochish, operatsiyalar amalga oshirish, xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish, bir martalik operatsiyalarda, kontragent mijozlar va h.k.) operatsiyalari onlayn avtomatlashtirilgan tizimi orqali solishtiriladi.

Dastlabki solishtirish davomida operatsiya ishtirokchilaridan biri yoki har qanday operatsiyani amalga oshirmoqchi bo‘lgan tomonlardan biri Sanksiyalar ro‘yxati bilan to‘liq mos kelgan hollarda, ularga xizmat ko‘rsatish va operatsiyani davom ettirish taqiqlanadi. Mazkur jarayonda Bankning Bosh ofisi va filiallardagi mijozga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlariga telefon orqali, holat aniqlangan paytdan boshlab 5 daqiqa ichida xabar qilishlari lozim.

Bundan tashqari, yangilangan Sanksiyalar ro‘yxati bilan mos kelgan operatsiya ishtirokchilarini (shu jumladan harakatsiz yoki faol mijozlarni) aniqlash maqsadida Sanksiyalar ro‘yxatiga mas’ul bo‘lgan xodimlar Ichki nazorat modulidagi maxsus solishtiruv funksiyasi orqali mavjud mijozlar bazasini kunlik tarzda solishtirishlari lozim.

**7.2.** Sanksiyalar ro‘yxati bilan solishtirishning keyingi bosqichida Ichki nazorat dasturining tegishli modullari vositasida sanksiyalar ro‘yxati bilan solishtirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Sanksiyalar ro‘yxati bilan solishtirish Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan mijozlar yoki operatsiyalar tasdiqlanishi davomida mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha (masalan, mijoz bankka murojat qilganda hisobvaraq ochishda, pul o‘tkazmasi bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishda bank mijoji yoki kontragentni (eksport import operatsiyalari, xalqaro pul o‘tkazmalari), VASH<sup>3</sup> orqali amalga oshirilgan operatsiyalari, bank mijoji ma’lumotlar bazasini o‘zgartirishda hamda yuridik shaxsning identifikatsiyalash jarayonida uning rahbari yoki ta’sischilarini solishtirish va boshqalar) minimal solishtirish miqdorlari kiritilgan elektron boshqaruv tizimida amalga oshiriladi.

Minimal solishtirish miqdorini elektron boshqaruv tizimiga kiritish Sanksiyalar ro‘yxatiga mas’ul bo‘lgan xodimlar tomonidan Bank faoliyatidagi sohalar, operatsiyalar, texnologiyalar va sanksiyalar bo‘yicha tavakkalchiliklardan kelib chiqib, Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbarini yozma xabardor qilgan holda (ma’lumotnomha taqdim etish orqali) amalga oshiriladi.

Shuningdek, sanksiyalar ro‘yxati bilan solishtirishni avtomatik tarzda amalga oshirish bo‘yicha avtomatlashtirilgan baza (Ichki nazorat dasturi va SWIFT Transaction Screening Utility dasturi)dagи sozlamalar qaysi tartibda va qachon o‘zgartirilganligi Ichki audit boshqarmasi tomonidan tekshirilishi mumkin.

**7.3.** SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy tizimi amalga oshirilayotgan jo‘natuvchi va oluvchi jismoniy va yuridik shaxslar to‘lovlaring tanlangan xalqaro ro‘yxatlardagi shaxslar bilan mosligini onlayn rejimda tekshiradi.

Jo‘natuvchi va oluvchi jismoniy va yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi to‘lovlarini SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy ta’mnoti orqali o‘z vaqtida tasdiqlash yoki rad etish vakolati Bank Boshqaruv Raisi qaroriga asosan Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlariga yuklatiladi.

Komplayens-nazorat boshqarmasi boshlig‘i, Moliyaviy monitoring tizimini rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, So‘rovlari va sanksiyalar ro‘yxatlari bilan ishslash sho‘basi mudiriga SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy ta’mnotinining administratori (supervayzer) vazifasi biriktiriladi.

---

<sup>3</sup> Valyuta ayirboshlash shoxobchaları

Shuningdek, mijoz Bank Amaliyot boshqarmasi va filiallariga to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha murojaat qilganda Bank front ofisi xodimlari mijozlarga sanksiyalar bo‘yicha tushuntirishi ishlarini olib borish, ya’ni ularni hamkorining davlati yoki banki sanksiyalar ro‘yxatiga tushgan davlatlar va tashkilotlar qatorida bo‘lganda Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan to‘lovlar 3 bank ish kunidan 10 bank ish kunigacha o‘rganilishini eslatishi kerak bo‘ladi.

SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy ta’mnoti sanksiya ro‘yxatidagi yuridik shaxslar bilan o‘xhashlik sababli bankning yuridik mijozlarini bloklangan operatsiyalar bo‘yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan mijozni to‘liqroq o‘rganish maqsadida anketa (1-ilova) shakllantirilgan. Ushbu anketani tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi tomonidan mijoz haqida qo‘srimcha ma’lumotlar olish maqsadida mijozga taqdim qilinadi.

SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy ta’mnoti sanksiya ro‘yxatidagi shaxslar bilan ehtimoliy o‘xhashlik sababli bloklangan to‘lovlarni mijoz tomonidan shakllantirilgan anketa hamda qo‘srimcha ma’lumotlar orqali Komplayens-nazorati mas’ul xodimi haqqoniy mosligini tekshiradi va ushbu to‘lovni o‘tkazish yoki o‘tkazmaslik bo‘yicha mustaqil qaror qabul qiladi.

**7.4.** To‘lovlarni o‘tkazish yoki o‘tkazmaslik bo‘yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi sanksion xatarlardan kelib chiqib qaror qabul qiladi hamda ushbu qarorni tegishli boshqarmalar xodimlariga elektron pochta orqali bildiradi. Ushbu qarorda mijoz operatsiyasini o‘tkazmaslik sababini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi.

Shuningdek, to‘lovlarni jo‘natuvchi va oluvchi shaxslarning ma’lumotlari ro‘yxatidagi shaxslar bilan mos kelganda Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan kuchaytirilgan chora-tadbirlar ko‘riladi, ya’ni o‘xhash ma’lumotlarning aynan mosligi tekshiriladi, ochiq manbalar orqali olingan qo‘srimcha ma’lumotlar o‘rganiladi. Tekshirish natijasida ro‘yxatidagi shaxslar to‘liq mos kelganligiga ishonch hosil qilinganda mas’ul xodim tomonidan SWIFT Transaction Screening Utility dasturiy ta’mnoti orqali to‘lovni o‘tkazmaslik bo‘yicha qaror qabul qilinadi. Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan Bank Bosh ofisining Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasiga o‘tkazilmagan to‘lovlar bo‘yicha farmoyish taqdim etiladi. Bank Bosh ofisining Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi tomonidan mijoz hisob raqamiga Komplayens-nazorat farmoyishiga asosan yoki chet el banki hisobiga “Due to internal policy” izohi bilan qaytariladi.

**7.5.** Ichki nazorat dasturidagi operatsiyalar va ularning ishtirokchilarini solishtirishda va o‘xhash shaxslar operatsiyalari shubhali mijozlarni aniqlash modulida<sup>4</sup> avtomatik ravishda aniqlanib, ushbu operatsiyalar (masalan, mijozga hisobraqam ochish, uni mijoz sifatida tasdiqlash) bloklanadi.

**7.6.** Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan bloklangan yuridik va jismoniy shaxslar yuz foiz o‘xhashligi o‘rganiladi. Modulda shaxsga yuz foizlik o‘xhashlik bo‘lmasa, Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan operatsiya amalga oshirishga ruxsat beriladi, agar shubhali mijozlarni aniqlash modulida shaxsga yuz foizlik o‘xhashlik bo‘lsa, Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan kuchliroq solishtiriladi (jismoniy shaxs bo‘lsa – tug‘ilgan yili va joyi, manzili va h.k, agar yuridik shaxs bo‘lsa – ro‘yxatdan o‘tgan sanasi, STIR, manzili va h.k.), agar solishtirish imkoniyati

<sup>4</sup> Ichki nazorat dasturi

mavjud bo‘lmasa (ya’ni kontragent shaxslar, sanksiya ro‘yxatidagi shaxslar), unda Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari Bank Bosh ofisidagi So‘rovlar va sanksiyalar ro‘yxatlari bilan ishslash sho‘basi xodimiga blokdagi shaxs ma’lumotlarini aniqlash uchun telefon yoki elektron pochta orqali xabar beradi.

**7.7.** Sho‘ba mas’ul xodimi ushbu shaxsni World-Check-One dasturi orqali to‘liqroq o‘rganadi va Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlariga blokdagi shaxs haqida qo‘sishimcha ma’lumotni telefon yoki elektron pochta orqali xabar beradi. Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari ushbu qo‘sishimcha ma’lumotga asosan blokdagi shaxsni, agar o‘xshashligi bo‘lmasa, o‘z tavakkalchiligidan kelib chiqib ushbu mijozga ruxsat yoki bir martalik ruxsat berishi kerak bo‘ladi. Agar qo‘sishimcha ma’lumotlarga asosan yuz foiz o‘xshashligi aniqlansa, Komplayens-nazorat boshqarmasi xodimlari tomonidan ushbu shaxsning operatsiyasi to‘xtatiladi (bloklandi). Blokka qo‘yilgan shaxsning har qanday operatsiyasini amalga oshirish imkoniyati bo‘lmaydi.

**7.8.** Solishtirishning minimal miqdorlari bo‘yicha to‘xtatilgan mijoz yoki operatsiya ishtirokchisining to‘liq mos kelishi Komplayens-nazorat boshqarmasining quyi bo‘linmadagi xodimi tomonidan o‘rganiladi, bunda Komplayens-nazorat boshqarmasining quyi bo‘linmadagi xodimi Komplayens-nazorat boshqarmasiga yordam so‘rab yozma yoki og‘zaki (telefon orqali) murojaat qilishi mumkin.

Komplayens-nazorat boshqarmasining quyi bo‘linmadagi xodimi Sanksiyalar ro‘yxati bilan moslik darajasini aniqlash maqsadida, operatsiya ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslar to‘g‘risida qo‘sishimcha ma’lumot (jumladan, operatsiya ishtirokchisi – yuridik shaxsning ta’sis, boshqaruv yoki davlat ro‘yxati bo‘yicha hujjat va ma’lumotlari), jismoniy shaxslar bo‘yicha ularning shaxslarini tasdiqlovchi hujjatlarning elektron nusxalarini quyi tarkibiy bo‘linmalar orqali mijozdan yoki uning vakilidan so‘rab olish huquqiga ega, biroq jarayon 10 daqiqadan oshmasligi lozim.

Shuningdek, mijoz tomonidan kerakli hujjatlar yoki ma’lumotlar taqdim etilmagan hollarda to‘xtatish bekor qilinmaydi (blokdan chiqarilmaydi).

**7.9.** Minimal solishtirish miqdori orqali to‘xtatilgan (dasturda blokirovka qilingan) mijoz, harakat yoki operatsiya ishtirokchilari Sanksiyalar ro‘yxati bilan to‘liq mosligi aniqlangan holda, Bankning tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari, jumladan Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Komplayens-nazorat boshqarmasining filialdagi xodimi Bank bosh ofisining Komplayens-nazorati boshqarmasiga holat haqida 5 daqiqa ichida telefon orqali xabar beradi hamda bu haqida quyi bo‘linma rahbariga xizmat yozishmasini yuboradi;

shu bilan birga Komplayens-nazorat boshqarmasining filialdagi xodimi mijozga xizmat ko‘rsatuvchi xodimga keyingi 5 daqiqa ichida barcha ma’lumotlar Bank Bosh ofisiga yetkazilganligi, mijozga tushuntirish berish (jarayonda mijozni kuttirmaslik maqsadida) lozimligi hamda keyingi ko‘rsatma Bankning Bosh ofisi tomonidan taqdim qilinishi haqida telefon orqali ma’lum qiladi;

quyi tarkibiy bo‘linma mijozga sanksiyalarning oqibatlari hamda mijoz mablag‘lari hamkor banklar tomonidan muzlatilishi (to‘xtatib qolinishi) ehtimolini tushuntirishi lozim;

to‘liq mos kelish bo‘yicha holatdan xabardor bo‘lgan Bank Bosh ofisi Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan hisobvaraqqa mijoz bilan munosabatga kirishish yoki

kirishmaslik hamda operatsiyani bajarish yoki bajarmaslik bo'yicha Komplayens-nazorat boshqarmasi rahbariga taklif kiritiladi (30 daqiqa ichida);

Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan mijoz bilan munosabatga kirishish/kirishmaslik yoki operatsiyani amalga oshirish/amalga oshirmaslik bo'yicha Boshqaruv Raisi yoki uning vakolatli o'rinbosariga xulosa kiritiladi;

Bank Boshqaruv Raisi yoki uning vakolatli o'rinbosari Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan kiritilgan (asoslantirilgan) xulosa doirasida Bank Bosh ofisining tarkibiy bo'linmalariga quyidagi ko'rsatmani berishi mumkin:

a) mijoz va uning amalga oshirilishi lozim bo'lган operatsiyasi muhimligiga ko'ra Bank Bosh ofisi tarkibiy bo'linmasi (biznes yo'nalishi) tomonidan xalqaro yuridik tashkilotdan olingan xulosa doirasida harakatni amalga oshirish;

b) mijoz operatsiyalarini rad etish.

Yuqoridagi ikkala holatda Bank Bosh ofisi tarkibiy bo'linmasi (biznes yo'nalishi) Outlook tizimi orqali quyi tarkibiy bo'linmaga (bo'linma rahbari va front-ofis bo'limi rahbariga) shu mazmunda elektron xizmat yozishmasi orqali xabar berishi lozim;

Bank Boshqaruv Raisi yoki uning vakolatli o'rinbosarining yuqorida keltirilgan ko'rsatmalari natijalari bunday ko'rsatmani rasmiylashtirishni inobatga olgan xolda bir ish kuni davomida quyi tarkibiy bo'linmaga yetkazilishi kerak;

o'z navbatida, quyi tarkibiy bo'linma mijozga Bank Bosh ofisidan olingan ko'rsatma natijasini telefon orqali bildirib, mijozga bu haqida yozma ma'lumotni tayyorlashi (30 daqiqadan oshmasligi) hamda holat bo'yicha yozma javob xatini mijozga yetkazishi lozim.

**7.10.** Bank Bosh ofisi tarkibiy bo'linmalari faoliyati davomida mijozlardan olingan hujjatlar/ma'lumotlar bo'yicha Sanksiyalar ro'yxati bilan to'liq moslik aniqlangan yoki sanksiya qo'llanilgan sohalar (tovarlar, xizmatlar)ga pul mablag'larini o'tkazish holatlari bo'yicha Komplayens nazorat boshqarmasiga 5 daqiqa ichida telefon orqali xabar beriladi. Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan mazkur Tartibning 7.3.-bandida ko'rsatib o'tilgan tartibda ishlar olib boriladi.

**7.11.** Sanksiya qo'llangan davlatlar va hududlarga bog'liq (ro'yxatdan o'tgan, turgan yoki yashayotgan) mijozlar bilan munosabatga kirishish yoki ular bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi. Bunday davlatlar va hududlar ro'yxati sanksiyalar kengayishi yoki o'zgarishi barobarida Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan doimiy yangilanib, Bank Bosh ofisi va quyi tarkibiy bo'linmalariga taqdim etib boriladi.

**7.12.** Sanksiyalar ro'yxati bilan to'liq mos bo'lмаган (lojniye trevogi/signali) mijozlar va operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar "Ichki nazorat" dasturida elektron tartibda, to'liq mos kelish bo'yicha barcha hujjatlar va ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan muddatlarda mahfiyligi ta'minlangan holda saqlab boriladi.

## **VIII. KORRESPONDENT BANKLARINING SO'ROVNOMALARI BILAN ISHLASH**

**8.1.** Korrespondent banklar sanksion xatarlarni aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha xalqaro, mahalliy va ichki tartiblarga rioya etadilar. Shunga ko'ra ular vakillik hisob raqamlardagi operatsiyalarni nazorat qilib boradilar. O'z navbatida, korrespondent banklarda amalga oshirilgan tahlillar va monitoringlar natijalariga ko'ra turli miqyosdagi

savollar paydo bo‘ladi va ular respondent banklarga, shu jumladan “ASIA ALLIANCE BANK” ATBga ham so‘rovnomalalar jo‘natadilar.

Odatda, ushbu so‘rovnomalarda o‘tkazilayotgan tranzaksiyalar bo‘yicha ma’lumotlarni aniqlashtirish bo‘yicha savollar ko‘rsatilgan bo‘ladi va javoblar bo‘yicha qat’iy muddatlar o‘rnataladi. Shunga ko‘ra, Bank mutassaddi xodimlari (Komplayens nazorat va Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmalari, filiallar rahbarlari va boshqa xodimlar) so‘rovnomalarga o‘z vaqtida javob berish bo‘yicha barcha choralarini ko‘rishlari shart.

## **IX. SANKSION XATARLAR VA ULARNI BOSHQARISH**

**9.1.** Sanksion xatarlar odatda uch darajada baholanadi, ya’ni “quyi”, “o‘rta” va “yuqori”. Sanksion xatarlarni aniqlash va baholashda Bank quyidagilarni o‘rganib chiqishi kerak bo‘ladi:

- mijozlar va ularning biznes hamkorlari bazasi (KYC<sup>5</sup> va KYCC<sup>6</sup>);
- amalga oshirilayotgan tranzaksiyalarning valyutasi, miqdori va hududlari;
- to‘liq yoki qisman sanksiyalarga tushgan mamlakatlar bilan amaliyotlar salmog‘i;
- FATF ro‘yxatlari va offshor hududlarga kiruvchi mamlakatlar bilan amaliyotlar salmog‘i;
- Bankda ro‘yxatdan o‘tgan kontraktlar tomonlari (banklar, hamkorlar, benefitsiarlar va nazorat qiluvchi shaxslar);
- Bankda ro‘yxatdan o‘tgan kontraktlar va o‘tkazilayotgan amaliyotlar bo‘yicha mahsulot va xizmatlar turlari;
- korrespondent banklarning sanksion komplayens bo‘yicha majburiyatlar darajasi va so‘rovlari miqdori;
- sanksion komplayens sohasida ichki tartib va hujjatlarning mavjudligi va Bank xodimlarining ularga rioya etish darajasi;
- sanksion skrining bo‘yicha Bankdagi mavjud dasturlarning zamonaviy talablarga mosligi;
- sanksion komplayens bo‘yicha trening materiallarining mavjudligi va Bank mas’ul xodimlarining bilim darajalari;
- sanksion komplayens sohasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa vaziyatlar.

## **X. SANKSIYALAR BO‘YICHA XODIMLAR MALAKASINI OSHIRIB BORISH**

**10.1.** Komplayens-nazorat boshqarmasi mas’ul xodimlari sanksiyalar bo‘yicha o‘z bilim va tajribalarini oshirib borish bilan birgalikda Bank xodimlari uchun ham muntazam ravishda treninglar o‘tkazib borishlari kerak.

**10.2.** Komplayens-nazorat boshqarmasi mas’ul xodimlari o‘z bilimlarini quyidagi tarzda oshirib borishlari kerak:

- bir yilda kamida to‘rt marta xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan sanksiyalar va eksport nazoratiga oid treningda qatnashish;

<sup>5</sup> KYC (Know Your Customer) – O‘z mijozini o‘rganish/bilish;.

<sup>6</sup> KYCC (Know Your Customer’s Counterparty) – Mijozlar hamkorlarini o‘rganish/bilish.

- bir yilda kamida bir marta, sohaga oid malakali spikerlarga ega bo‘lgan xorijiy yoki mahalliy tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan seminarlarda qatnashish va sertifikat olish;
- xalqaro tashkilotlar va G7 mamlakatlarining sanksiyalar va eksport nazoratiga oid qonunchilik hujjatlari, tartib, nizom va boshqa ochiq manbalarda e’lon qilib boriladigan ma’lumotlarini muntazam ravishda o‘rganib borish va amalda qo‘llash;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa regulyatorlik organlari tomonidan chop etiladigan sanksiyalar bo‘yicha talablar va tavsiyalarni o‘rganib qat’iy rivoja etib borish;
- xorijiy korrespondent banklar va mahalliy banklarning sanksion komplayens bo‘yicha tajribalarini o‘rganib borish va amaliyotga joriy etish.

Komplayens-nazorati boshqarmasi mas’ul xodimlari sanksiyalar bo‘yicha muntazam ravishda, ya’ni chorakda kamida bir marta Bankning tegishli bo‘linmalariga interaktiv seminar-trening o‘tib berishlari va ushbu sohaga oid qo‘llanmalar bilan ta’minlab borishlari shart.

## **XI. YAKUNIY QOIDALAR**

**11.1.** Mazkur Tartib talablari ijrosi Bankning barcha tarkibiy bo‘linmalari uchun majburiydir.

Quyi tarkibiy bo‘linmalar tomonidan mazkur Tartibga rivoja etilishi ustidan monitoring va nazorat Komplayens-nazorat boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar Bank ichki me’yoriy hujjatlari, shuningdek tegishlicha qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.